

PAXTA YAKKAHOKIMLIGI DAVRIDA XOTIN-QIZLARNING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI O'RNI (QASHQADARYO MISOLIDA)

Magistrant: Akmal Safarov
Ilmiy rahbar: dots. Mamlakat Qodirova

1925-yil 17-fevralda O'zbekiston SSR tashkil topgach hukumat oldidagi asosiy va dolzarb vazifalardan biri yer-suv islohotlarinining ikkinchi bosqichini davom ettirish va shu orqali paxta xomashyosi yetishtirishni jadallashtirishdan iborat edi, chunki Sovet davlatining iqtisodiy rejalarida O'zbekiston SSR tashkil topmasdanoq, paxta xomashyosini yetkazib beruvchi mamlakat sifatida namoyon bo'layotgan edi.

"Turkiston yoppasiga paxta maydoniga aylantirilishi lozim, buning uchun g'alla ekiladigan maydonlar nihoyatdda qisqartirilishi zarur degan edi bolshevik mulozimlaridan biri Lyubimov"¹.

Paxtachilikni rivojlantirib borish esa albatta hukumat oldiga yana bir muammoni qo'ydiki, sovet davlati bu muammoning yechimini tezda topdi, bu ham bo'lsa ishchi kuchi muammosi edi. Sovet davlati ishchi kuchi muammosini hal etish maqsadida o'lkada "Hujum" harakatini o'ylab topdi, go'yoki shu orqali o'lkada xotin qizlar haq-huquqlarni himoya qilishga urinayotgan sovet humkumatining asl maqsadi, asrlar davomida shakllanib kelgan milliy urf odatlarga zarba berish va barcha sohalarda ayollar mehnatidan unumli foydalanish edi. "Hujum" harakati esa tom ma'noda bu maqsadga erishish uchun ko'priq vazifasini bajardi.

"Hujum" harakati tufayli ozodlikka erishgan ayollar mehnatga shu darajada berilgan ediki, erkaklar ham ortda qolib ketardi. "Pravda vostoka" gazetasi 1932- yil 10- iyulidagi sonida yozishicha, qishloq xo'jaligida ayollar erkaklar uchun mo'ljallangan normalarni ham oshirib bajara boshlaganlar"²

Respublikada paxtachilik sohasining rivojlanib borgani sari deyarli paxtachilik bilan bog'liq barcha sohalarda ayol kadrlar soni ham oshib bordi. Ayollar mehnatidan paxta terimidan tortib toki uning sug'orish masalarida ham foydalanila boshlandi. Paxtachilik kolxozlaridagi ishchilarining aksariyat qismini ayollar tashkil eta boshladi.

"1966- yil 4 kun ichida paxta tayyorlash planini birinchi bo'lib bajargan Qamashidagi "Farg'ona" kolxzining Eshbo'ta Jo'raev boshchiligidagi 1967- yil ham qamashiliklar dilini yoritdilar. 40 hektar maydonning har gektaridan 18,5 sentenerdan paxta yig'ib olib belgilangan topshiriqni oshirib bajarishdi. Planning bajarilishiga Qurbonoy Yaxshieva, Jangil Toshmirova, Muxtaram Qambarova va Hanifa Alimardonovalar katta hissa qo'shdilar"³

Paxta yakkahokimligining kuchayib borishi, sovet davlatining ishtahasini ham oshirib borgan. Hukumat paxta hosildorligini oshirish uchun agitatsiya yani tashviqot masalalariga ham e'tibor qaratdi. Paxta-yig'im terimini tezlashtirish uchun hatto brigadalarda agitator ya'ni tashviqotchi lavozimi ham joriy etildi. Bu jarayonlarga esa aholi orasida nufuzi baland, so'zga chechan xotin-qizlardan foydalanila boshladi, shu orqali qisman bo'lsada hosildorlik oshirildi.

"Chiroqchi rayonida 600 ga yaqin agitator ish olib borib, ommaviy agitatsiyaning barcha tur va shakllaridan foydalanib terimchilarga kunlik yangiliklarni yetkazish bilan birga, ilg'orlarning ish tajribalarini ommalashtirib bordilar, shu sababli 3000 ga yaqin terimchi o'z zimmasidagi vazifani a'lo darajada bajardi"⁴.

Yuqorida ma'lumot shundan darak beradiki mavsum davomida agitatorlar soni ham oshirilgan va ularning tashviqot usullari ham turlicha bo'lgan. Agar terimchilarining aksariyati ayollardan iborat ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, agitatorlik lavozimiga ham aksariyat ayollar qabul qilingan. Agitator ayollar hukumat va terimchi ayollar o'rtaida ko'priq vazifasini bajargan

“Shahrisabz rayonidagi “Partiya XIX sezdi” kolxozining Burhon Kenjaev boshliq brigadasi paxtakorlari yubiley yilida “oq oltin”dan ulkan xirmon uyish niyatida agrotexnika talablari darajasida olib borishyapti. Brigada agitatori Nazokat Ibrohimova dilkash suhbatlari bilan paxtakorlarni g‘alabalar sari ilhomlantiradi”⁵.

Aholi orasida o‘tkaziladigan bu kabi tashviqotlar paxta yig‘im terimi davrida yanada ko‘paytirilgan, shu orqali paxta yig‘im-terimini tezlashtirishgan. Albatta bundan ko‘zlangan iqtisodiy maqsad paxtani birinchi sortga topshirish bo‘lgan, shuning uchun ham agitatorlar mehnati har doim qadrlangan.

1957-yil dekabr.⁶

Nº	Paxta sorti	Topshirilgan miqdor (kg)
1	I	7098
2	II	5290
3	III	1252
4	IV	5541
5	V	864

Yuqoridagi jadvalda Qarshi paxta tozalash zavodida qabul qilingan paxta sortlari keltirilgan bo‘lib, e’tibor qilinadigan bo‘lsa I sortga qabul qilingan paxta nisbatan ko‘p bunda albatta agitator ayollarning hissasi bor.

“Chiroqchi rayonidagi Komunna kolxozining Shukur Ergashev, Zuxra Abduazizova,” O‘zbekiston” Kolxozining Xosiyat Mamatova va Jangil Temirova va boshqa terimchilari mavsum davomida 8-10 tonna paxta terdilar”⁷

Afsuski, ayollarning og‘ir mehnati sovet hukumati tomonidan qadr topmadi, tog‘ri sovet hukumati tomonidan ba’zida paxta terimi davrida terimda ishtiroy etgan ayollar haqida turli xil radio eshittirishlar, gazetada ularning faoliyatini maqtab maqolalar yozildi va hatto ularning faoliyatiga doir kinofilmlar yaratildi, lekin bu ularni faoliyatini ulug‘lash uchun emas, aksincha bu orqali aholi orasida tashviqotda foydalanish uchun qo‘llanilgan.

“60-yillarda “Literaturnaya gazeta”da yozuvchi Abdulla Qahhor “Husnbuzar” maqolasida “paxtakor ayollarimizning mehnati qanchalar og‘irligi, yozuvchilar va kinomatograflarning bu mehnatni chirolyi atlas ko‘ylak kiygan qo‘schiqchilarning bayramidek qilib ko‘rsatishlari qanchali sharmandalik” ekani haqida yozgan edi”⁸

Xulosa qiladigan bo‘lsak paxta yakkahokimligi davrida, ayniqsa ikkinchi jahon urushi va undan keyin qishloqlarda erkaklar soni kamayib ketdi, natijada boshqa sohalar kabi qishloq xo‘jaligi ayniqsa paxtachilik sohasida mehnat qilish ayollar zimmasiga yuklatildi. Ayollarimiz esa o‘g‘ir sharoitlarga qaramasdan ba’zida erkaklardan ham ko‘proq mehnat qilishga, majbur bo‘lishdi oqibatda ayollar orasida turli kasalliklar avj oldi. Ularning qadr-qimmati toptaldi go‘yoki sovet davlati davrida ularga kommunistik g‘oyani amalga oshiruvchi qora ishchidek munosabatda bo‘lishdi. Shukurki mustaqillik ularning qadr-qimmatini tiklash uchun imkon yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1) Abdullaev.A.N. “O‘zbekistonda paxta yakka hokimligi va uning oqibatlari (1917-1991 y.y)” 2010. B.87.
- 2) O‘zbekistonning yangi tarixi: O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Toshkent.: Sharq. 2000. B.384
- 3) Raportlar//Qashqadaryo haqiqati. 1967, №142. 21-iyul. B.:1
- 4) Rajabov.F. Baland ruh bilan //Qizil O‘zbekiston. 1958, №255. 29-oktyabr.B.:4

-
- 5) Qamariddinov.X. Eng yaxshi agitatorlarimiz //Qashqadaryo haqiqati. 1967 , №133. 8-iyul. B.:2
 - 6) Qashqadaryo VDA.466-Jamg‘arma,1-ro‘yxat, 26-ish, B.80
 - 7) Rajabov.F. Baland ruh bilan // Qizil O‘zbekiston. 1958, №255. 29-oktyabr.B.:4
 - 8) Alixanov. M. O‘zbekiston ziyorilariga qarshi partiya va davlat zo‘ravonligining kuchayishi //Namangan Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi. 2018.№1